

## ILK O'RTA ASRLARDA SUG'D TAQVIMI VA VAQT HISOBI TIZIMINING SHAKLLANISHI

<https://doi.org/10.70728/conf.edu.v3.i4.003>

*Raximov Bektosh Elmurodovich*  
*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand*  
*davlat universiteti dotsenti*  
*Xolmahmatov Faridun Sirojiddinzoda*  
*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand*  
*davlat universiteti tarix fakulteti*  
*4-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** Sug'diyona va sug'diylar O'rta Osiyo tarixidagi eng muhim va ta'sirli madaniyatlardan biri hisoblanadi. Ko'p asrlar davomida butun Osiyoda o'z faoliyatini olib borgan bu xalq nafaqat siyosiy va iqtisodiy jihatdan, balki madaniy va ilmiy jihatdan ham butun mintaqa uchun muhim ahamiyat kasb etgan. Sug'diylar savdo, san'at, din va fan sohalarida yetakchi o'rinni egallagan, ularning taqvim tizimi esa bu rivojlanishning asosiy omillaridan biri bo'lgan. Taqvim tizimi dehqonchilik, chorvachilik, savdo va diniy hayotning barcha jabhalarida muhim rol o'ynagan, shuning uchun uning tadqiqi zamonaviy tarixshunoslik uchun dolzarb hisoblanadi.

**Kalit so'zlar:** taqvim; Mug' tog'i arxivi; "Osor ul Boqiya"; "rwc"; "zmnh"; "y'm", Fravardigon va Navruz bayramlari.

**Kirish.** Sug'd taqvimi mintaqaviy xronologiya tizimlarining rivojlanishida alohida o'rin tutadi. Bu taqvim tizimi zardushtiylik an'analari bilan mahalliy sug'diy xususiyatlarining uyg'unlashuvidan vujudga kelgan va asrlar davomida takomillashib borgan. Uning o'rganilishi nafaqat Sug'd tarixini, balki butun O'rta Osiyo va unga qo'shni mintaqalarning madaniy tarixini ham yoritishga yordam beradi. Xususan, Ipak yo'li bo'ylab savdo aloqalarining rivojlanishi, turli xalqlar va madaniyatlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir jarayonlari taqvim tizimlari orqali o'rganilishi mumkin.

Vaqt hisobi tizimlari har qanday sivilizatsiyaning asosiy xususiyatlaridan biri bo'lib, ular orqali jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, diniy va madaniy hayoti haqida ko'plab ma'lumotlar olish mumkin. Sug'd taqvimi bu jihatdan alohida qiziqish uyg'otadi, chunki u bir necha turli ta'sirlarni - zardushtiylik, mahalliy sog'diy va hatto xitoy va turk an'alarini - o'zida mujassam etgan. Bu taqvim tizimining tuzilmasi, oy va kun nomlari, bayramlar va marosimlar orqali turli madaniyatlar o'rtasidagi aloqalar va o'zaro ta'sirlarni aniqlanish imkonini beradi.

**Muhokama va natijalar.** Sug'dshunoslik - nafaqat eronshunoslikning, balki butun sharqshunoslikning mustaqil bir tarmog'i sifatida XIX asrning ikkinchi yarmida shakllandi.

O'zining deyarli ikki asrlik tarixi davomida u ikki marta yuksalish bosqichini boshidan kechirdi; bu bosqichlar jahon miqyosidagi ilmiy kashfiyotlar bilan bog'liq edi. Birinchi holda, O.I. Smirnovaning so'zi bilan aytganda, Sharqiy Turkistondan topilgan sug'dcha qo'llanmalar sug'dshunoslikning mustaqil sharqshunoslik sohasi sifatida yuzaga kelishiga asos bo'lib xizmat qildi[5. 6].

Soha mutaxasislarining fikricha, sug'dshunoslik rivojlanishidagi ikkinchi bosqich 1933-yil A.A. Freyman[4. 5] tomonidan Tojikistonning Mug' to'g'iga uyushtirilgan ekspeditsiya natijasida 80 ga yaqin sug'diy hujjatlarining topilishi, ularning o'qilishi, izohlari, tarixiy-lingvistik tahlili va ilmiy muomalaga kiritilishi bilan bog'liq. Sug'dshunoslik shakllanishi va rivojlanishida ko'plab taniqli olimlarning ilmiy faoliyati muhim o'rin tutadi. Ular jumlasiga S.F. Oldenburg, K. Zalemann, V. Tomashek, V.B. Xenning, F.A. Rozenberg, V.V. Bartold, I. Gershevich, V.A. Livshits, N. Sims-Villiams, M. Boys, B. Marshak va boshqalarni kiritish mumkin.

O'zbekistonda sug'dshunoslik sohasiga XX asrning 70-yillarda asos solindi. mashhur sharqshunos olim V.A. Livshitsning shogirdi M.M. Is'hoqov O'rta Osiyoda birinchilardan bo'lib, sug'dshunoslik bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borib, sug'dshunoslik maktabini shakllantirmoqda. 2008 yilda M.M. Is'hoqovning "Markaziy Osiyo dunyo yozuv madaniyati tizimida" nomli paleografik tadqiqotlarga bag'ishlangan monografiyasi o'zbek va jahon sug'dshunosligining katta yutuqlaridan biri bo'ldi. Uning shogirdlari O. Mansurov, Sh. Shoyoqubov, B.Mamurahimova, A. Xolmatov kabilar sug'dshunoslikning kelajakdagi rivoji uchun hissa qo'shishga kirishganlar. Ularning maqolalari va monografiyalarida sug'diy hujjatlar, xususan Mug' arxivi izchil o'rganilib, Sug'dning ikki etnik birligi sug'diylar va turkiylar o'rni xolis yoritilganligi bilan xarakterlanadi.

Mug' tog'i arxivida turli mavzumdagi tarixiy hujjatlar mavjud bo'lib, shu tarixiy manbalar ichida A12 raqamli hujjat alohida qiziqish uyg'otadi. Bu hujjatning tarixiy ahamiyati shundaki, unda sug'diylar tomonidan foydalanilgan taqvim, undagi oy va hafta kunlari nomlari ro'yxati keltirilgan.

Taniqli sug'dshunos olim A.A.Freyman yozishicha, Sug'd taqvimi haqidagi asosiy ma'lumot manbayi Abu Rayhon Beruniy tomonidan yozilgan "Osor ul Boqiya" asari bo'lib unda, xorazmlik qomusiy olim turli xalqlarning taqvimlari, jumladan, forslar, sug'diylar va xorazmliklarning oylari, kunlari va bayramlari nomlari haqida xabar beradi[2. 140-141]. Bundan xulosa qilish mumkinki, Abu Rayhon Beruniy nafaqat fors tili, ehtimol, qadimgi sug'd va xorazm tili va manbalaridan xabardor bo'lgan va shu asosda o'z asarida bu xalqlarning vaqt yuritish hisobi haqida batafsil ma'lumotlar keltirgan.

<b>№</b>	<b>Sug'diy oylar</b>	<b>Xorazm taqvimi oylari</b>	<b>Fors taqvimi oylari</b>
1	Navsard	Novsorji	Farvardin moh
2	J-r-j-n	A-r-d-v-sh-t	Urdibihisht moh

3	Niysanj	H-r-v-dot	Tir moh
4	Basokandj	Chiri	Xurdod moh
5	Ashnoxanda	H-m-d-d	Murdod moh
6	Majndo	A-x-sh-v-i-r-i	Shahrivar moh
7	Fug'kon	Umri	Mehrmoh
8	Obonj	Yonox-v-n	Obon moh
9	Fug'	Adu	Ozar moh
10	Masofug'	Rim-j-d	Day moh
11	Jimdo	A-x-m-n	Baxman moh
12	Xshum	Ispandormaji	Isfandormuz moh

\* [1. 253-283]

Uning ma'lumotlariga ko'ra, sug'd taqvimi fors taqvimidan deyarli farq qilmagan. Ya'ni, sug'd taqvimida yil 365 va chorak kundan iborat bo'lib, yil har biri 30 kundan iborat 12 oyga bo'lingan. Beruniy bu ikki taqvim o'rtasidagi tafovutni faqat qo'shimcha 5 kunlik o'rnida deb hisoblagan[1.278]. Gap shundaki, forslar bu kunlarni Obon moh(8-oy)ning oxirida qo'shishgan bo'lsa, sug'diylar xshum (12-oy) dan so'ng buni amalga oshirishgan.

Beruniy tilga olgan oy va kun nomlari sug'd tilidagi turli manbalarda uchraydi. Mug' tog'i arvivi tarkibidagi Nov-3 raqamli hujjatni misol qilish mumkin. Bu hujjat mazmuniga ko'ra Ottekin va Dug'dg'oncha o'rtasidagi nikoh sharnomasi bo'lib, hujjatda kelishuv imzolangan sana, ya'ni Tarxun hukmronligining 10-yili, Masvog'ich oyi(sug'd taqvimidagi 10-oy), Asmonroch kuni deb keltirilgan[3.23]. A-8 raqamli hujjat "Devashtich hukmronligining 8-yili, Nisanich oyi, Xvaroj kuni" so'zlari bilan boshlanadi[2.142]. Hujjatlarning yozilgan aniq muddatini ko'rsatish ko'plab Mug' tog'i hujjatlariga xos holatdir. Jumladan, V-4, V-8, A-16 va shu kabi hujjatlarda ham kelishuvlar qachon imzolanganini ilg'ash mumkin[3.64].

Bir qator tadqiqotchilar Beruniy ma'lumotlarini sug'd qo'llanmalari va hujjatlari bilan solishtirish asosida sug'd taqvimining oy va kunlari qadimgi Eron tabiati va Avesto panteonining ilohlariga bag'ishlab nomlangan degan fikrni bildirganlar. Soha tadqiqotchisi B.Marshak fikriga ko'ra, sug'd taqvimida uchinchi oy Nisan yoki Nisanich Sug'dga chegaradosh hudud - Baqtriyada ham mavjud bo'lgan va sug'diylar ulardan bu nomni o'zlashtirishgan. O'z navbatida Nisan so'zi Bobil taqvimida ham uchraydi. Sug'd, shuningdek Xorazm yilining oylari va kunlari arman taqvim bilan o'xshash jihatlari mavjud bo'lgan, biroq sosoniy taqvimidan besh kun farq qilgan[6.145]. Demak, sug'd taqvimi turli kalendar tizimlari bilan shakllanish ildizlari o'xshash hamda hamohang ravishda rivojlangan.

Sug'd taqvimidagi e'tiborga molik jihatlaridan biri unda 30 kunning alohida nomlanishi mavjudligi hisoblanadi. Kunlarning nomlanishida zardushtiylik an'anasi ta'siri mavjudligi e'tiborni tortadi. Bu bog'liqlik, avvalo, barcha kun (o'rta fors tilidagi)

nomlarning “rwc” - “kun” ma’nosidagi soʻz bilan birga qoʻllanishi bilan izohlanadi. Sugʻd tilida esa, aftidan, “kun” ma’nosini beradigan bunday alohida soʻz mavjud boʻlmagan. Shu sababli bu unsur murakkab soʻzning tarkibiy qismi sifatida tushunilgan va shuning uchun hujjatlarda odatda “kun” soʻzi bilan qoʻshib, bir butun qilib yozilgan. Masalan, oying birinchi kuni “**xwrmzt rwc**” tarzida yozilgan boʻlib, soʻz tarkibida aynan “**rwc**” qismi mavjud. Sugʻdiylar kunlarning nomlanishini tahlil qilish shuni koʻrsatdiki, soʻzlar, asosan, diniy xarakterga ega boʻlgan. Jumladan, yuqorida keltirib oʻtilgan birinchi kun “**xwrmzt rwc**” soʻzi zardushtiylik dindagi eng oliy iloh hisoblanmish Ahura Mazdani sharafiga qoʻyilganini ilgʻab olish qiyin emas. Oʻn oltinchi kun “**βyy rwc**” esa deb nomlangan va iloha Mitraga bagʻishlangan.

A12 hujjatida yana bir eʼtiborni jalb qiladigan maʼlumot mavjudki, unda sugʻdiylarning hafta kunlari nomlanishi qanday boʻlgan degan savolga javob topiladi. Hujjatda oy, kunlar nomlanishidan tashqari hafta nomlari ham saqlanib qolgan. Qiziqarli tomoni shundan iboratki, hafta nomlanishi astronomik hamda diniy xususiyatga ega va har bir hafta kuni qaysidir sayyora yoki iloh bilan bogʻliq boʻlishi taxmin qilinadi. Soʻzimiz isboti sifatida quyidagi misolni keltiramiz: sugʻdiylarda haftaning birinchi kuni “my(rzmnh)” deb nomlangan[7.90]. Bu soʻzni zardushtiylikda yuksak ulugʻlangan iloh - Mitra nomiga qoʻyilgan deb talqin qilish mumkin. Mitra zardushtiylik aqidalariga koʻra Quyoshning ramzi deb qaralgan. Yana bir oʻxshashlik haftaning ikkinchi kuni “mʼ(x) zmnh” va Oy soʻzlari oʻrtasida seziladi. Sababi, sugʻd va fors tillarida Oy mʼx deb yuritilgan. Haftaning beshinchi kuni “wrmʼzt zmnh” soʻzi esa yozilishi jihatidan Ohrmzd yaʼni Ahuramazda soʻzini eslatadi. Ahuramazda esa oʻz navbatida Yupiter sayyorasining ramzi deb tasavvur qilingan. Haftaning barcha kunlari nomlanishida “zmnh” soʻzi qoʻshib yozilishi koʻrish mumkin. Bu soʻz pahlaviy, fors, arman, surroniy til lugʻatlarida uchraydi va turli xil maʼnolarni ifodalab kelgan. Jumladan, sugʻd tilida bu soʻz “vaqt”, “davr”, “mavsum”, “daqiqqa”, “kun” kabi maʼnolarni bildirgan[8. 1482]. Shu maʼlumotlarga tayanib aytish mumkinki, sugʻdiylar hafta kunlarini nomlar shunchaki astronomik emas, balki zardushtiylik anʼanalarning sugʻd madaniyatiga singib ketganligidan dalolat beradi.

Sugʻdiy hafta nomlanishi	Zamonaviy muqobili	Astronomik maʼnosi
my(rzmnh )	Yakshanba	myr(mir) - ‘Miθra; quyosh’
mʼ(x) zmnh	Dushanba	Mʼx(moh) - ‘oy’
w(n)x(ʼn zm)nh	Seshanba	wnxʼn - ‘Mars’
tyr (zmn)h	Chorshanba	tyr - ‘Merkuriy’
wrmʼzt zmnh	Payshanba	wrmzt(Ahuramazda) — ‘Yupiter’
nʼxyδ zm(nh)	Juma	nʼxyo — ‘Venera’

(kyw)[ <sup>1</sup> n] (zmnh)	Shanba	kyw <sup>1</sup> n — ‘Saturn’
-------------------------------	--------	-------------------------------

\*[7.90]

Sug‘d xalqi nishonlagan bayramlar haqida bizga Beruniy va Xitoy manbalarining ma‘lumotlari oydinlik kiritadi. Xususan, Beruniy sug‘d taqvimidagi oylarning zikr qilish bilan birgalikdagi ularda mavjud hayit kunlarini ham sanab o‘tadi. Beruniy bu kunlarni nomini sanab o‘tar ekan ulardan so‘ng “og‘om” so‘zini ishlatadi. Sug‘diy tilida “**γm**” so‘zi muaomalada bo‘lgan va u “muqaddas kun”, “ziyofat”, “bayram” ma‘nolarini anglatgan[8. 82]. Demak, “Osor ul boqiya” asarida sug‘diylar Romush og‘om, Nikh og‘om kabi kunlar bayram sifatida nishonlangaligini ayon bo‘ladi.

O‘rta Osiyo xalqlari, jumladan, sug‘diylar nishonlaydigan Fravardigon va Navruz zardushtiy taqvim bilan shubhasiz bog‘liq. Eron va Markaziy Osiyaga oid arxeologik va san‘atshunoslik adabiyotida ushbu bayramlar doimo bahorgi va kuzgi bayramlar deb qaraladi. Beruniy ma‘lumotlariga qaraganda, sug‘diylar Navruz bayramini Navsard oyining birinchi kuni nishonlaganlar[1. 279]. Suy sulolasining Yang-di (604–617) hukmronligi davrida g‘arbiy chet ellarga diplomat boshlig‘i sifatida safar qilgan va “Xifan ji” (G‘arbiy varvarlar yozuvlari) asarini yozgan yuqori darajali mansabdor Vey Je sug‘diylarni kuzatish davomida quyidagilarni qayd etadi: *“Ular oltinchi oyning birinchi kunini yilning boshlanishi deb hisoblaydilar. O‘sha kun kelganda, podshoh va xalq yangi kiyim kiyib, soch va soqollarini qirqadilar; poytaxtning sharqidagi o‘rmonda yetti kun davomida otda o‘q otishadi; so‘nggi kun kelganda, nishonga qog‘oz varaqqa oltin tanga qo‘yiladi; uni ura olgan kishi bir kunlik shoh bo‘lishga haqli”*. Bu parcha sug‘diylar nishonlaydigan Navruz bayramida o‘tkaziladigan turli tadbirlar haqida ma‘lumot beradi. Lekin, Vey Je o‘z asarida yil boshlanishini oltinchi oy deb keltirgan. Ehtimol, Vey Je xitoy taqvimining 6 -oyini nazarda tutgan va bu sug‘diylarning 1-oyiga to‘g‘ri kelgan bo‘lishi mumkin. Vey Je so‘zini davom ettirar ekan shunday qimmatli faktlarni keltirib o‘tadi: *“Ular ilohiy bola yettinchi oyda o‘lganini va uning jasadi yo‘qolganini aytadilar; xudoga sig‘inish bilan shug‘ullangan erkaklar, o‘sha oy kelganda, barchasi qora to‘qimali kiyim kiyib, yalangoyoq yurishadi, ko‘ksiga uradilar va yig‘laydilar; ko‘z yoshi va balg‘am aralashib yuzlariga to‘kiladi; uch-besh yuztadan erkaklar va ayollar qishloq bo‘ylab tarqalib, osmon bolasining jasadini qidiradilar, yettinchi kuni bu marosim tugaydi”*. Xitoylik diplomat bu yerda ham biroz yanglish ma‘lumot bergan ko‘rinadi. Sababi, bu oyda sug‘diylar kundalik hayotida hech qanday muhim bayram fors yoki arabiy manbalarda tilga olinmagan. Vey Je 7-xitoy oy oyi emas, balki 7-su‘g‘d oyi - **Fug‘kon** haqida so‘zlagan. Birinchi va yettinchi

oydagi ushbu ikki so'g'd bayrami yilning asosiy bayramlari bo'lib, fors bayramlariga - Navruz va Fravardigon (Mihragon)ga mos kelgan[6.151].

**Xulosa.** Sug'd taqvimni Markaziy Osiyoda shakllangan murakkab va ko'p qirrali fenomen bo'lib, u faqatgina amaliy vaqt hisobi vositasi emas, balki butun bir madaniyatning diniy tasavvurlari, kosmologik ko'z-qarashlari va ijtimoiy munosabatlarining ifodasi bo'lgan. Bu tizimning o'rganilishi bizga qadimgi Sug'diyona jamiyatining ichki tuzilishi va uning qo'shni madaniyatlardan bog'liqligini chuqurroq tushunish imkonini beradi. Sug'd xronologiyasining shakllanishida bir necha omillar ta'sir qilgan. Zardushtiylik diniy an'analari asosiy rol o'ynagan, chunki ko'pchilik kun va oy nomlari Avesto matnlaridan olingan. Manbalarning xilma-xilligi bu sohani o'rganishda murakkabliklar tug'diradi. Mug'tog'i hujjatlari orqali sug'd tilidagi kun nomlarining aniq shakllari tasdiqlangan. Beruniyning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida oylar va kunlar tizimining to'liq tavsifini saqlab qolgan. Dunxuang qo'lyozmalari esa buddist va astrologik kontekstda vaqt hisobi tizimini yoritib beradi. "Avesto" matnlari esa barcha bu nomlarning qadimgi manbay hisoblanadi. Biroq ba'zi hujjatlar, xususan, arxeologik yodgorliklardagi yozuvlar, hali to'liq o'rganilmagan va yangi ma'lumotlarni kashf etish imkoniyati mavjud. Sug'd xronologiyasi vaqt o'tishi bilan o'zgarishlarga uchragan. Sosoniylar ta'siri ostida ayrim eroniy shakllar kuchaygan, arablar davrida esa islomiy oy-hisobiy tizim joriy etilgan. Biroq an'anaviy tizimning elementlari, ayniqsa, diniy marosimlar va bayramlar uzoq vaqt davomida mahalliy aholining hayotida saqlanib qolgan. Bu tizimning chidamliligi uning nafaqat amaliy, balki ma'naviy ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Sug'd xronologiyasi va vaqt hisobi tizimi shunday murakkab va qatlamli hodisaki, uning to'liq tushunilishi faqat turli fanlar - tarix, filologiya, astronomiya, arxeologiya, dinshunoslik sohalarining hamkorligida amalga oshirish mumkin. Bu tizim nafaqat o'tmishni o'rganish, balki insoniyat vaqt tasavvurining rivojlanish qonuniyatlarini tushunish uchun ham qimmatli manba hisoblanadi. Qadimgi sug'dlar vaqtini nafaqat hisoblagan, balki uni muqaddaslashtirgan, har bir kun va oyga ma'naviy ma'no bag'ishlagan va bu meros bizning davrimizgacha yetib kelgan.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar, I-tom. // O'zbekiston SSR "Fan" nashriyoti, Toshkent -1968
2. Доклады группы востоковедов на сессии академии наук СССР// Издательство академии наук СССР,- Москва 1936 Ленинград,
3. Лившиц В. А. Согдийская эпиграфика Средней Азии и Семиречья. // Филологический факультет СПбГУ, 2008
4. Согдийский сборник // Сборник статей о памятниках согдийского языка и культуры найденных на горе Муг в Таджикской ССР.-Ленинград: АН СССР. 1934
5. Смирнова, О.И. Очерки из истории Согда / Наука, 1970.
6. B. I. Marshak . The Historico-Cultural Significance of the Sogdian Calendar, Iran: Journal of the British Institute of Persian Studies - 1992.

## International Conference on Education and Innovation

7. Catalogue of Sogdian writings in Central Asia—Samarkand: IICAS, 2022
8. Raham Asha. A Compendious Sogdian Dictionary II// Alain Mole, Perso-Aryan studies 2024.

